NOVERBAL KOMMUNIKATSIYA VOSITALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI: FIZIOGNOMIK BELGILAR TAHLILI

Xasanova Gulrux Xayrullayevna
ORCID: 0000-0003-4650-4549
gulrukhkhasanova88@gmail.com
SamDÇTI

Annotatsiya: Uşbu maqolada noverbal kommunikatsiya vositalarining lingvopragmatik va semiotik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda noverbal belgilarning verbal muloqotni töldiriş, aniqlaştiriş va ba'zan uning ma'nosini özgartirişdagi örni oçib berildi. Fiziognomika, kinesika, prosodika, takesika va proksemika kabi asosiy guruhlar körib çiqildi. Ayniqsa, fiziognomik belgilar (yuz ifodalari) ning semantik va pragmatik yuklamasi, madaniyatlararo muloqotdagi öziga xosligi hamda badiiy matnlarda (Abdulla Qodiriy "Ötkan kunlar" romani misolida) qöllanilişi tahlil qilindi. Noverbal vositalar mustaqil va köp qatlamli kommunikativ tizim sifatida baholandi. Tadqiqot tavsifiy, qiyosiy va kontekstual tahlil usullariga asoslandi.

Kalit sözlar: noverbal kommunikatsiya, lingvopragmatika, semiotika, fiziognomika, kinesika, mimika, paralingvistika, madaniyatlararo muloqot

LINGUOPRAGMATIC ÇARACTERISTICS OF NON-VERBAL COMMUNICATION MEANS: AN ANALYSIS OF PHYSIOGNOMIC FEATURES

Khasanova Gulrukh Khayrullayevna
ORCID: 0000-0003-4650-4549
gulrukhkhasanova88@gmail.com
SamSIFL

Abstract: This article analyzes the linguopragmatic and semiotic çaracteristics of non-verbal communication tools. The study elucidates the role of non-verbal signs in complementing, clarifying, and sometimes altering the meaning of verbal communication. Key categories suç as physiognomics, kinesics, prosodics, haptics (tacesics), and proxemics are examined. Particular emphasis is placed on the semantic and pragmatic significance of physiognomic signs (facial expressions), their specific nature in intercultural communication, and their application in literary texts (specifically in Abdulla Qodiriy's novel "Days Gone By"). Non-verbal means are

(cc) BY

evaluated as an independent and multi-layered communicative system. The researç employs descriptive, comparative, and contextual analysis methods.

Keywords: non-verbal communication, linguopragmatics, semiotics, physiognomics, kinesics, facial expressions, paralinguistics, intercultural communication

KIRIŞ

Hozirgi kunda jahon lingvistikasida antropotsentrizm masalasi tobora dolzarb bölib, turli ilmiy yönalişlarda keng tadqiq etilmoqda. Xususan, lingvomadaniyatşunoslik, paralingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika, gender lingvistikasi, psixolingvistika hamda madaniyatlararo muloqot sohalarida izlanişlar faollaşgan. Uşbu yönalişlarning barçasini birlaştiruvçi jihat şundaki, ular inson va uning atrof-muhit bilan özaro aloqasini turli rakurslarda örganadi. Ayniqsa, noverbal vositalarini tuşuniş va izohlaş jarayonida inson omilining örni va ta’sirini çuqur tahlil qilişga katta e’tibor qaratilmoqda.

Muloqot odatda ikki asosiy şaklda - oğzaki (verbal) va oğzaki bölmagan (noverbal) vositalar orqali amalga oşiriladi. Oğzaki bölmagan vositalar, masalan, mimika, imo-işoralar, tana harakatlari yoki ovoz ohangi, inson ongidan köra köproq ong osti jarayonlari ta’sirida yuzaga çiqadi. Şu sababli ular köpinça sözlarga qaraganda samimiyroq va işonçliroq hisoblanadi.

Agar suhbat jarayonida aytilgan sözlar bilan tana tilidan kelib çiqqan ma’lumot örtasida farq sezilsa, odatda insonlar ong ostidan çiqqan noverbal belgilarni töğriroq, deb qabul qilişadi. Çunki ular şaxsning içki holatini, his-tuyğularini va haqiqiy kayfiyatini yanada çuqurroq aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Noverbal vositalarining lingvopragmatik va semiotik xususiyatlarini örganişga bağişlangan ilmiy adabiyotlar tahlili şuni körsatadiki, bu sohada tadqiqotçilar turli yondaşuvlardan foydalanganlar. Ular noverbal belgilarning kommunikativ vazifalarini, verbal muloqot bilan özaro boğliqligini hamda madaniy-semiotik qatlamlarini alohida e’tiborga olganlar.

Tadqiqotçi Dikson va Hargiy (2003) fikriça[1], noverbal kommunikatsiya insonlararo muloqot jarayonining ajralmas komponenti sifatida turli xil kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Uşbu vositalar, eng avvalo, verbal muloqotning mavjud emasligi yoki qöllanilişi çeklangan şaroitlarda muhim kompensator mexanizm sifatida namoyon böladi. Ular nafaqat oğzaki axborot uzatiş imkoniyatining muqobili sifatida, balki verbal kommunikatsiyani semantik jihatdan töldiruvçi, aniqlaştiruvçi va ba’zan esa uning ma’no yukini transformatsiya qiluvçi muhim pragmatik vosita vazifasini bajaradi.

(cc) BY

Bundan taşqari, noverbal belgilar individual emotsional holatlarni, içki psixologik jarayonlarni, şuningdek, şaxslararo ijtimoiy-psixologik munosabatlarni ifodalaşda, ularni sezilarli darajada ta’sirçan va anglanadigan şaklda namoyiş etişda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Kommunikativ diskurs davomida yuzaga keladigan pauza, uziliş yoki noaniqliklarni kompensatsiyalovçi va suhbat oqimini tartibga soluvçi kinestetik va proksemik belgilar muloqot jarayonining strukturaviy yaxlitligini ta’minlaydi.

Şu bilan birga, noverbal aloqaning semiotik aspektlari orqali şaxsiy maqom, ijtimoiy status, madaniy identifikatsiya va guruhga oidlik kabi murakkab ijtimoiy konstruktlar taşqi köriniş, kiyim-keçak, tana turğusi, mimika va boşqa paraverbal elementlar vositasida ifodalanadi. Bularning barçasi noverbal kommunikatsiyani nafaqat oğzaki muloqotga ergaşuvçi qöşimça vosita, balki mustaqil va köp qatlamli kommunikativ tizim sifatida qaraş zaruratini yuzaga çiqaradi[1].

Jon Till va Kourtland Boveening ta’kidlaşiça, muloqotning eng muhim va asosiy şakllaridan biri bu - noverbal muloqotdir[2]. Ular noverbal muloqotga imo-işoralar, tana harakati, ovoz ohangi, fazoviy masofalar (proksemika) hamda sözsiz muloqot uçun qulay vaqt kabi unsurlarni kiritadilar. Mualliflar fikriça, bu şakldagi muloqot insonlar orasidagi özaro anglaşuvning ajralmas qismi bölib, köpinça oğzaki (verbal) muloqotdan kuçliroq ta’sir körsatişi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tavsifiy, qiyosiy va kontekstual tahlil usullari qöllanildi. Asosiy e’tibor noverbal vositalarning (ayniqsa fiziognomik belgilarning) lingvopragmatik va semiotik xususiyatlarini oçib berişga, şuningdek, badiiy matnlardagi ifoda imkoniyatlarini tahlil qilişga qaratildi.

MUHOKAMA

Noverbal muloqot verbal muloqotdan bir qator jihatlari bilan tubdan farqlanadi. Avvalo, u kamroq tizimlaştirilgan bölib, şu bois uni örganiş murakkabroq hisoblanadi. Bundan taşqari, u köpinça ongli (maqsadli) va beixtiyor (avtomatik) şakllarda namoyon bölişi bilan ajralib turadi. Aynan şu xususiyatlari tufayli noverbal muloqot insoniy munosabatlarning psixologik va ijtimoiy jihatlarini çuqurroq oçib berişga xizmat qiladi.

Aloqa jarayonida iştirok etuvçi har bir noverbal vosita, alohida kommunikativ birlik sifatida, muayyan pragmatik maqsadga böysundirilgan holda işlatiladi. Bunday vositalar insonlararo muloqotda nafaqat axborot uzatiş, balki muloqotning ijtimoiy-psixologik me’yorlariga moslikni ta’minlaş, işonçlilik va tuşunarlilik darajasini oşirişga xizmat qiladi. Noverbal xatti-harakatlarning muloqot jarayonidagi ahamiyati ularning maqsadga muvofiqligi, ya’ni pragmatik yönaltirilganligi bilan belgilanadi.

Mazkur nuqtai nazarni A.Kendon ham ilgari suradi. U imo-işora tuşunçasiga aniqlik kiritar ekan, uni quyidagiça ta’riflaydi: “Imo-işora - fikrni ifoda etiş yoki gapiriş jarayonining bir qismi sifatida qaraladigan har qanday aniq faoliyatdir. Bu faoliyat

(cc) BY

kommunikativ funksiyaga ega bölişi kerak”[3] (Kendon, yili). Bu ta’rifdan kelib çiqib, imo-işoralar insoniy ifoda va nutq elementlari bilan uzviy boğlangan, semantik yuklamaga ega bölgan noverbal signallar sifatida namoyon böladi. Ularning mavjudligi va funksionalligi muloqotning mazmunli va izçil keçişini ta’minlaydi. Tahlillar şuni körsatadiki, har bir noverbal vosita muloqot jarayonida ma’lum pragmatik maqsadga böysundirilgan holda işlatiladi[4]. Ular nafaqat axborot uzatiş, balki işonçlilik, tuşunarlilik va ijtimoiy me’yorlarga moslikni ta’minlaş vazifasini ham bajaradi. Bu jihatdan A. Kendonning imo-işoraga bergan ta’rifi muhim ahamiyatga ega: imo-işora fikrni ifoda etiş jarayonining ajralmas qismi bölib, kommunikativ funksiyaga ega bölişi şart.

Insonlararo muloqotning mazmunan töliq, funksional jihatdan esa samarali keçişini ta’minlaydigan vositalar tizimida noverbal komponentlar alohida semiotik va kommunikativ ahamiyatga ega. Xususan, B.Axmedov (2019) ta’kidlaganidek, paralingvistik vositalar - ya’ni oğzaki nutq tizimiga bevosita kirmaydigan, biroq nutqiy ifoda bilan çambarças boğliq bölgan belgilar - til birliklarining stilistik murakkabligini yengillaştiradi, ularni kontekstual jihatdan moslaştiradi va kommunikativ ifodaning izçil keçişiga xizmat qiladi[5]. Bu jarayonda imo-işora, mimika, tana harakati kabi noverbal signallar yordamida nutqning ma’noviy yönalişi ijtimoiy va madaniy me’yorlarga muvofiqlaştiriladi. Ba’zan esa, söz, ibora yoki gap kabi aniq nutqiy birliklar aynan şu kontekstdagi noverbal vositalar bilan almaştirilişi mumkin böladi.

Şu nuqtai nazardan, M.Saidxonov (2020) ham insonning muloqotdagi iştirokini nafaqat lingvistik faoliyat, balki biologik va psixologik komponentlarning uzviy uyğunligida keçadigan murakkab jarayon sifatida izohlaydi. Uning ta’kidlaşiça, inson öz fikrini muloqot yönalgan şaxsga yetkazişda faqat til vositalarigagina emas, balki mimik harakatlar, kinetik elementlar va boşqa noverbal belgilar tizimidan ham foydalanadi. Natijada, muloqot jarayonida verbal va noverbal vositalar özaro uyğunlaşib, muloqotning mazmunini tölaqonli ifodalaş va uni aniq idrok etişga xizmat qiluvçi yagona kommunikativ tuzilmani şakllantiradi[6].

B.Axmedov (2019) va M. Saidxonov (2020) fikrlariga qöşilgan holda aytiş mumkinki, paralingvistik va noverbal vositalar til birliklarining stilistik murakkabligini yengillaştiradi, kontekstual moslaşuvni ta’minlaydi va ba’zan hatto söz örnini bosadi. Natijada verbal va noverbal vositalar özaro uyğunlaşib, yagona kommunikativ tuzilmani hosil qiladi.

Noverbal muloqot verbal muloqotdan bir qator muhim jihatlari bilan tubdan farqlanadi. U kamroq tizimlaştirilgan, köpinça ongli va beixtiyor şakllarda namoyon böladi[7]. Aynan şu xususiyatlari tufayli noverbal belgilar insoniy munosabatlarning psixologik va ijtimoiy qatlamlarini oçib berişda kuçliroq ta’sir körsatadi.

Şunday qilib, noverbal kommunikatsiya faqat yordamçi vosita emas, balki mustaqil semiotik tizim sifatida e’tirof etilişi lozim. Bu tizimning lingvopragmatik va

(cc) BY

madaniy-semiotik qatlamlarini çuqurroq örganiş hozirgi tilşunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Noverbal muloqot vositalari ayrim ilmiy manbalarda beş asosiy guruhga ajratiladi[8]. Bular quyidagilardan iborat: fiziognomika - inson yuzining tuzilişi va ifodasi orqali xarakter xususiyatlarini örganiş; kinesika - tana harakati, imo-işora va mimikalarning mazmunini tadqiq qiliş; prosodika - nutqning ohangi, temp va pauzalari kabi tovuş xususiyatlarini örganiş; takesika - teginiş orqali ifodalanadigan muloqot şakllari; proksemika esa odamlar orasidagi masofa va makoniy munosabatlarning muloqot jarayoniga ta’sirini izohlaydi.

Oddiy qilib aytganda, insonning nafaqat sözlari, balki uning qaraşlari, qöl harakati, ohangdorligi, yaqin yoki uzoq turişi ham suhbat mazmunini çuqurlaştiradi va uni töliqroq anglaşga yordam beradi.

Fiziognomika yunonçadan olingan bölib, bu termin ilk bora yunon olimi Gipokrat tomonidan qöllanilgan[9]. Fiziognomika insonning yuz tuzilişi va tana şakli orqali uning xarakter xususiyatlarini örganadigan sohadir. Kengroq ma’noda, bu odamning taşqi körinişidan ma’lum belgilarni izohlaş san’ati hisoblanadi. Suhbat davomida köz rangi, qoş va lab şakli, yuzdagi ajinlar yoki sepkillar ham şaxs haqida bevosita ma’lumot berişi mumkin. Masalan, lab atrofidagi va köz çetidagi ajinlar odatda insonning tez-tez tabassum qilişidan darak beradi.

Fiziognomika qadimiy ta’limot bölib, insonning taşqi qiyofasi bilan uning xarakteri örtasidagi boğliqlikni örganişga qaratilgan. Ayrim mutafakkirlar, jumladan Karl Yaspers, uni şaxs ruhiy xususiyatlarini aks ettiruvçi barqaror tana belgilarini tadqiq etadigan yönaliş sifatida ta’riflagan[10]. Bu fan yuz, boş suyagi, tana va qöl-oyoqlarning tuzilişidan kelib çiqadigan, odamning psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini bilişga harakat qiladi. Yuz ifodasi orqali şaxsning individual jihatlari va xatti-harakatlari haqida ma’lumot oliş mumkinligi ta’kidlanadi.

Şu bilan birga, fiziognomik terminologiya tarix davomida bir xil bölmagan va yagona ilmiy asos töliq şakllanmagan. Şu sababli, qadimiy davrlarda u köproq ezoterik qaraşlar va tasavvurlarga asoslangan, deb hisoblanadi. Masalan, qadimgi Yunonistonda bu ta’limot insonning taşqi körinişi va içki sifatlari örtasidagi bevosita boğliqlikni isbotlaşga urinilgan, biroq ilmiy dalillar yetarli bölmagan.

Fiziognomika qadimdan insonning taşqi qiyofasi, ayniqsa yuz tuzilişi orqali uning içki dunyosini va xarakterini tuşunişga uriniş sifatida şakllangan. Garçi u köp hollarda “soxta fan” sifatida baholangan bölsa-da, bu yönalişda töplangan kuzatuvlar inson muloqotini anglaşda öz ahamiyatini yöqotmagan. Çunki inson yuzida - ajinlarda, mimik çiziqlarda, nigohda, lab va qoş harakatida - ong ostidagi hissiyotlar, içki keçinmalar yaşiringan böladi. Şu bois, yuz inson ruhiy holatining tabiiy közgusiga aylanadi va muloqotda köp ma’noli axborot taşuvçisi sifatida qatnaşadi.

(cc) BY

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan fizionomik belgilar inson yuzidagi noverbal signallar tizimi sifatida qaraladi. Bunda inson xarakterini tashqi ko‘rinishiga qarab bashorat qilish emas, balki yuz ifodalarining kommunikativ mazmuni va pragmatik vazifasi o‘rganiladi. Masalan, tabassum do‘stona munosabat, samimiylik va iliqlikni ifodalashi mumkin. Qoshlarning chimirilishi esa norozilik, xavotir yoki ichki taranglikni bildiradi. Yuzning fizionomik ifodalari verbal fikrni kuchaytiradi, unga mos ma’no beradi yoki ayrim holatlarda aytilgan mazmunga zid munosabatni ko‘rsatadi.

Madaniyatlararo muloqotda fizionomik belgilar turlicha talqin qilinishi mumkin. Bir madaniy muhitda samimiylik belgisi hisoblangan tabassum boshqa muhitda noqulaylikni yashirish yoki vaziyatni yumshatish vositasi sifatida qabul qilinishi ehtimol. Shu sababli fizionomik ifodaning ma’nosini faqat tashqi shakliga qarab belgilash yetarli emas. Uning mazmuni kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabat va lingvomadaniy tajriba asosida aniqlanadi.

Raqamli diskursda fizionomik ifodalar emoji, emotikon, sticker va GIFlar orqali grafik shaklda qayta namoyon bo‘ladi. Masalan, 😊 emojisi tabassum va ijobiy munosabatni, 😔 xafalikni, 😡 esa norozilik yoki g‘azabni ifodalashi mumkin. Biroq emoji ma’nosi ham har doim bir xil bo‘lavermaydi. “Juda yaxshi qilibsiz 😏” xabarida 😏 belgisi tashqi ko‘rinishiga ko‘ra tabassumni anglatsa-da, kontekstda kinoya yoki yashirin norozilikni bildirishi mumkin.

Demak, raqamli diskursdagi emoji va boshqa grafik birliklar fizionomik ifodalarning bevosita nusxasi emas, balki ularning grafik-semiotik qayta ifodasidir. Ularni tahlil qilishda ikki jihatni farqlash lozim: yuz ifodasining tasviriy mazmuni va uning konkret kommunikativ vaziyatda yuzaga keladigan pragmatik talqini.

Şunday qilib, fiziognomika ilmiy jihatdan bahsli bölişiga qaramay, u lingvistika va kommunikatsiya nazariyasi doirasida inson muloqotining tabiiy, hissiy va semantik qatlamlarini anglaşda muhim örin tutadi. Yuz - bu inson ruhining sokin, ammo juda aniq tili.

Abdulla Qodiriyning *“Ötkan kunlar”* romanida fiziognomik belgilar orqali qahramonning içki keçinmalari mahorat bilan yoritilgan. Masalan, yozuvçi quyidagiça yozadi:

“*Otabekning yuzida bir lahza ğurur aralaş taşviş jilvasi paydo böldi. Uning közlari çuqur öyga töldi, qoşlarining orasida esa mayin ajinlar körindi.”(*Qodiriy A. Ötkan kunlar. - Toşkent: Ğafur Ğulom nomidagi Adabiyot va san’at naşriyoti, 2014.)

Uşbu parça Qodiriyning inson psixologiyasini noverbal ifoda vositalari orqali oçişdagi mahoratini körsatadi. Yozuvçi Otabekning hissiy holatini töğridan-töğri sözlar orqali emas, balki yuzdagi mimik özgarişlar - köz çuqurligi, qoş orasidagi mayin ajinlar va yuz ifodasi orqali tasvirlaydi. Bu belgilar fiziognomikaning lingvopragmatik

(cc) BY

vositalari sifatida xizmat qilib, qahramonning içki keçinmasini tabiiy va işonarli tarzda ifodalaydi.

Şu örinda A.Qodiriy yuz ifodalarini nafaqat taşqi holat sifatida, balki semantik yukga ega kommunikativ signallar tizimi sifatida qöllaydi. Otabekning nigohi va yuz çiziğidagi özgarişlar uning ruhiy keçinmalarini aks ettiradi, şu bilan birga oğzaki nutqni boyitadi va obrazning psixologik çuqurligini ta'minlaydi. Bu holat fiziognomik belgilarni noverbal muloqotning badiiy şakli sifatida talqin qiliş imkonini beradi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida noverbal muloqot vositalari beş asosiy guruhga ajratildi: fiziognomika, kinesika, prosodika, takesika va proksemika. Ularning har biri muloqot jarayonida öziga xos semantik va pragmatik yuk taşiydi.

Eng çuqur tahlil qilingan yönaliş - fiziognomika böldi. Yuz ifodalari (mimika) şaxsning içki holati, hissiyotlari va munosabatini eng aniq va samimiy ifodalovçi noverbal signal tizimi ekanligi aniqlandi. Tilşunoslik nuqtai nazaridan fiziognomika xarakter başorati emas, balki yuz belgilari orqali uzatilayotgan mazmuniy va pragmatik ma'noni tahlil qiliş vositasi sifatida qaraldi.

Abdulla Qodiriyning "Ötkan kunlar" romanidan olingan misol bu xulosani amaliy jihatdan tasdiqladi. Otabekning yuzidagi mayin ajinlar, köz çuqurligi va nigoh özgarişi orqali yozuvçi qahramonning içki keçinmasini sözsiz, ammo juda aniq ifodalagan. Bu holat fiziognomik belgilarning badiiy matnda lingvopragmatik vosita sifatida samarali işlaşini körsatdi.

Şuningdek, madaniyatlararo muloqotda yuz ifodalarining semantik çegaralari turliça ekanligi, ularning ijtimoiy-kulturologik kod sifatida örganilişi zarurligi aniqlandi.

Umuman olganda, noverbal kommunikatsiya vositalari mustaqil, köp qatlamli va yuqori pragmatik salohiyatga ega tizim ekanligi isbotlandi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalariga köra, noverbal kommunikatsiya vositalari insonlararo muloqot jarayonida mustaqil semiotik tizim sifatida muhim örin tutadi. Ular verbal muloqotni nafaqat töldiruvçi va aniqlaştiruvçi, balki ba'zan uning semantik yukini özgartiruvçi pragmatik mexanizm vazifasini bajaradi.

Fiziognomika, kinesika, prosodika, takesika va proksemika kabi asosiy guruhlarning tahlili noverbal belgilarning lingvopragmatik xususiyatlarini oçib berdi. Ayniqsa, yuz ifodalari (mimika) şaxsning içki holati, hissiyotlari va munosabatini eng aniq va işonçli tarzda ifodalovçi vosita ekanligi aniqlandi. Madaniyatlararo muloqot kontekstida esa bu belgilar ijtimoiy-kulturologik kod sifatida turliça talqin etilişi mumkinligi isbotlandi.

Abdulla Qodiriyning "Ötkan kunlar" romanidan olingan misollar fiziognomik belgilarning badiiy matnda personajlarning psixologik holatini oçib berişdagi

(cc) BY

samaradorligini yaqqol namoyiş etdi. Şu bois, noverbal kommunikatsiya vositalari tilşunoslik, pragmalingvistika va semiotika nuqtai nazaridan yanada çuqur örganişga loyiq murakkab va köp qatlamli hodisa sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dickson, D., & Hargie, O. (2003). Skilled interpersonal communication: Researç, theory and practice. Routledge.

2. Muhammad Naeem Butt. Impact Of Non-Verbal Communication On Students' Learning Outcomes. Peşawar- Pakistan 2011. P.11.

3. Kendon, A. (1981). Geography of gesture. Semiotica, 37, 134.

4. Abjalova, M., Khasanova, G., Mardonova, D., & Şodmonaliyeva, Y. (2025). Modification of nonverbal expression in virtual communication environment. Proceedings of the 10th International Conference on Computer Science and Engineering (IEEE-UBMK-2025), 445-450.

5. Axmedov, B. R. (2019). Nutqiy muloqotda paralingvistik vositalarning örni. Özbekistonda xorijiy tillar, 77.

6. Saidxonov, M. (2020). Mimik noverbal vositalar. In "Nutq madaniyati va özbek tilşunosligining dolzarb muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari (p. 238).

7. Xasanova, G. (2026). Paralingvistika fanining şakllanişi va nazariy asoslari. World of Philology Scientific Journal, 5(2), 196-201.

8. Поваляева М. А., Рутер О. А. Невербальные средства общения / Серия «Высшее образование». - Ростов н /Д : Феникс, 2004. - С.4. (352 с.)

9. Fizionomika. (n.d.). In Wikipedia. Retrieved October 2, 2025, from https://ru.wikipedia.org/wiki/Физиогномика

10. Jaspers, K. (1997). Obşçaya psikhopatologiya (L. O. Akopyan, Trans.). Praktika.

11. Qodiriy, A. (2014). Ötkan kunlar. Ğafur Ğulom nomidagi Adabiyot va san'at naşriyoti.

(cc) BY